



**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA ILMUY IZLANISHLAR OLIB  
BORISH TENDENSIYALARI**

**Turg'unova Shaxlo Matmurodovna**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATUFF qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7635541>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborot texnologiyalar sohasida ilmiy izlanishlar, bugungi kundagi o'rni, iqsodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar, shuningdek bozor munossabatlarga o'tish va kelgusidagi rejalar bo'yicha qisqacha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiyalar, Internet, axborot axborot-kominikatsiya,bilim, ko'nikma, zamонавиј, бoshlang`ich sinflarda, maktab, ilmiy, axborot, idrok, faolyat, rivojlantirish.

Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lган bo'lsa-da, xozirgi zamон axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda "saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi" turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagи texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtни tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Yaratuvchi (ijodiy) axborot taxnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat.

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishslash texnologiyalaridir. Odатда bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotni EHM va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish,

# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



**2nd Sun**

saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi.

Axborotlashtirish vaqtinchalik tadbig' emas, rivojlanishning zarur vositasidir va axborotli muxitning hozirgi rivojlanish darajasidagi holatini informatikasiz qo'llab bo'lmaydi. Axbortlarni tez, sifatli yig'ish saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi vazifalarni bajarishda hisoblash texnikasining xizmati beqiyos ekaniga ishonch hosil qilmoqdamiz. Iqsodiyotning boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munossabatlarga o'tish buxgalteriya xisobini tashkil qilish va olib berishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo'llaniladi. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuuni kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan boglik faoliyat soxalari tashkil kiladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda "saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi" turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagি texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtini tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Yaratuvchi (ijodiy) axborot taxnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalananadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat.

Axborot texnologiyalarining xozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-taxnika taraqqiyotini, jamiatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

Darxaqiqat, jamiatni axborotlashtirish—inson xayotining barcha jabxalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan boglik ob'ektiv jarayon xisoblanadi. Jamiatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy yextiyojlarning kondirilishiga, iqtisodning usishi hamda fan-texnika tarakkiyotining jadallahishiga xizmat kiladi. Jamiatni axborotlashtirish jaraenini 5 asosiy yunalishga ajratish mumkin:

# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



**2nd Sun**

- Mexnat, texnologik va ishlab chiqarish jaraeni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.
- Ilmiy tadkikotlar, loyixalash va ishlab chiqarish axborotlashtirish.
- Tashkiliy- iktisodiy boshkarishni avtomatlashtirish.
- Axoliga xizmat ko'rsatish soxasini axborotlashtirish.
- Talim va kadrlar tayerlash jaraenini axborotlashtirish.

Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdag'i abortoria uzlashtirishda kompyuter tizimining yordami benixoya kattadir. Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qat'i nazar, uni yigish, saqlash, kayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:

Birinchidan, o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart (an'anaviy) tizimga nisbatan o'quv jarayonini jadallashtirib, talabada ilmga qiziqishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini o'stiradi, bilim berishga differentsial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash va nazorat qilishni yengillashtiradi, talabani o'quv jarayonining sub'ektiga aylantiradi.

Ikkinchidan, yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish mumkin bo'ladi:

- muayyan pedmetlarni ukitishda kompyuter darslari;
- kompyuter darslari—kurgazmali material sifatida;
- talabalarning guruxli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;
- talabalarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;
- talabalarning ukishdan bush vaktlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini xal yetishda va x.k.

Mexnat samaradorligining bundan keyingi o'sishi va farafonlik darajasini ko'tarish. katta xajmdagi multimediya axborotini (matn, grafika, video tasvir, tovush, animatsiya) qabul qilish ishlashga yangi intellektual vositalar va inson mashina interfeyslardan


# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



**2nd Sun**

foydalish asosidagina yerishish mumkin. Informatikada mexnat unumdorligini oshirish suratlari etarli bo'lmasa, butun halq xo'jaligidagi samaradorligini o'sishi anchagini kamayib ro'y berishi mumkin. Xozirgi dunyodagi barcha ish joylarining 50 foizi ga yaqin axborotni qayta ishslash vositalari bilan ta'minlangan.

Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnologiyalari bilan ta'minlash insonlarning turli – tuman ma'lumotlarga bo'lgan yehtiyojini qondirishda muxim o'rinni tutadi. Bugungi kunda ijtimoiy turli ko'rinishdagi axborotlar majmuasi keng va rivojlangan bo'lib, uning jamiyatda tutgan o'rni bexisobdir. Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o'rinni tutib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o'z natijalarini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy raqamlarga nazar tashlanadigan bo'lsak, o'tgan yildagi natijalarni ijobiy deb baholasa bo'ladi. AKT sohasida ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 10,6 trillion so'mgacha yetib, 104% o'sishini ko'rsatdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 176 million dollargacha, ya'ni 130 foizgacha o'sdi.



### 1-rasm. 2020-yilda axborokommunikasiya texnologiyalari sohasining asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlari

Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi ishlab chiqildi. Bugungi kunda Yagona portal orqali 176 ta elektron davlat xizmati taqdim etilmoqda, ushbu xizmatlardan foydalanish uchun 15,1 mln. ta ariza-buyurtma kelib tushgan, bu davlat organlari bilan o'zaro aloqada aholining vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirishga yordam berdi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali tizimi orqali hozirgi davrda aholiga 176 ta davlat xizmatlari ko'rsatiladi. 2019 yil yakunlari bo'yicha 15,1 milliona ta ariza-buyurtma bilan ish olib borildi.

Yagona idoralararo ijro intizomi tizimi bo'yicha hozirgi vaqtda tizimga 4,4 mingdan ortiq davlat organlari va tashkilotlar, 30 mingdan ortiq foydalanuvchilar ulandi.

Tadbirkorlarning, shu jumladan, chet el investorlari murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarini

# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



**2nd Sun**

hal etish maqsadida Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portalni ishga tushirildi. Bugungi kunda ushbu portal orqali 34,7 mingta murojaat kelib tushib, shulardan 33,6 mingtasi ko'rib chiqilgan. Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish yagona interaktiv portali faoliyati natijalariga ko'ra, o'tgan yili jami 34,7 mingta murojaat to'shgan bo'lsa, ulardan 33,6 mingtasi ko'rib chiqildi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ayni paytda yoshlarni va mas'ullar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkoniyatini beruvchi "Yoshlarni murojaati" elektron platformasi ustida izlanish olib borilyapti. U yoshlarning ilm olishi, kasb-hunarli bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, hayotda o'z o'rnnini topishiga xizmat qiladi. Sohaga oid ilmiy izlanishlarni davom ettirish, yanada kengaytirish maqsadida Toshkent viloyatida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti filiali hamda barcha hududda texnikumlar ochilishi rejalashtirilmoqda. Qolaversa, davlatimiz rahbari bu yildan boshlab xalqaro IT sertifikatini qo'lga kiritgan yoshlarni xarajatining 50 foizigacha bo'lgan qismini qoplab berish vazifasini qo'ydi. Bu sa'y-harakatlar uchinchi tashabbusning tobora keng quloch yoyishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Birlashgan Arab Amirliklarining "Dubai Future Foundation" jamg'armasi tomonidan amalga oshirilayotgan "Bir million dasturchi" loyihasi yoshlarning axborot texnologiyalariga qiziqishini rag'batlantirishda muhim strategik qadam bo'ldi. O'tgan yili loyiha 120 mingdan ziyod o'quvchi qamrab olindi. Ularning 18 mingdan ortig'i kurslarni muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat oldi. Kelgusida bu ko'rsatkichni 300 mingga yetkazish va yoshlarni kompyuter texnologiyalari yo'nalishida bepul o'qitish hamda masofaviy ta'limni va darslarni onlayn o'tkazish imkoniyatini beradigan axborot tizimlarini ishga tushirish ko'zda tutilgan. Ya'ni shuni aytish mumkinki, bu yaratilib turgan barcha sharoitlar, imkoniyatlar biz yoshlarni uchundir. Bundan unumli foydalangan holda, O'zbekiston yoshlari nimalarga erisha olishini ko'rsatib qo'yishimiz lozim.

# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



2nd Sun

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr, PF-6079сон.
3. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
4. [https://mitc.uz/uz/pages/information\\_technologies](https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies)
5. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). Dasturiy ta'minot yordamida zamonaviy boshqaruvni tashkil etish istiqbollari. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
6. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.